

MAYKL MORPURGO ASARLARIDA HAYVONLAR OBRAZINING TASVIRLANISHI**I.Yo.Beknazarova, R.A.Nosirova**
*Samarqand davlat chet tillar instituti***Annotation**

The presented article deals with the features of animal painting genre based on the example of novels written by Michael Morpurgo, modern British writer. The development of genre and its features are explored in the novel of the writer.

Key words

animal painting, feature, novel, character, story, «War horse», the image of a creature, the image of a dragon

Annotatsiya

Maqlada animalistika janri elementlari ingliz zamonaviy aabiyoti vakili bolalar yozuvchi Maykl Morpurgo ijodi tahlilga tortilgan. Animalistika janrining taraqqiyoti va uning xususiyatlari Maykl Morpurgo yaratgan asar misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar

animalistika, xususiyat, asar, hikoya, “Jangovor ot”, mahluq obrazi, ajdarho obrazi

Kirish. Jahon xalqlari xususan ingliz adabiyotida hayvon yoxud jonivor obrazlarini tasvirlash juda uzoq yillik tarixga ega. Ingliz adabiyotining ilk yozma namunasi hisoblangan “Beovulf xaqidagi poema” da dastlab mahluq obrazi, poemaning ikkinchi qismida esa ajdarho obrazi mahorat bilan tasvirlangan. Jonivornlarni asarning ikkinchi yoxud birinchi planida tasvirlash uslubi Breton sikliga mansub “Qirol Artur afsonasi” da keng uchraydi. Hayvon tasvirlarining aniqligi, ularning hatti-harakatlari va qisman ruhiy holatini chuqur ochib berilishi kitobxonlarni lol qoldirishi tabiiydir. Asarlarda insonning do’sti yoxud unga qarama qarshi tarzda ifoda qilingan hayvon obrazlari asta-sekinlik bilan yaxlit janrni o’zida aks ettirdi. XIX asrda adabiyotda kashf etilgan bu tasvirlar uzoq vaqt tan olinmadidi. Yovvoyi hayvonlarning o’jar tabiatini ayniqsa yovvoyi otlar xaqida hikoya qiluvchi “Mustang” afsonasida ot hikoyaning birinchi planida tasvirlanibgina qolmay, ot nomidan voqealar bayon qilinadi. Mustangning hatti-harakatlarida ozodlikni hamma narsadan ustun qo’yish, insonga bo’ysunmaslik va sadoqatli do’st bo’la olishni ko’rish mumkin. Inson va hayvonlarni o’zoq yillik evolyusion taraqqiyot birlashtirib turadi. Bu taraqqiyot davomida hayvonlar insonlarga qiyinchiliklarni engib o’tishda yaqindan yordam beradi. Aynan mana shu xususiyat tufayli inson hayvonlarni o’ziga do’st sifatida qabul qiladi va adabiyotda eng yorqin shoh asarlarni ularga bag’ishlab yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Animalistik adabiyot uzoq yillik tarixiy taraqqiyot yo’lini bosib o’tdi. Animalistik janr yoxud animalistika, ba’zan esa animalizm lotincha “animal” ya’ni hayvon, jonivorni anglatib, tasviriy san’at, haykaltaroshlik, grafika va badiiy adabiyotda hayvonlarni tasvirlash demakdir. Animalistik janr tabiiy-ilmiy va badiiy negizga asoslangan bo’lib, insonda tabiatni chuqur kuzatish va unga samimiyy muhabbatni rivojlantiradi. Tadqiqotchi Yu.S.Oreoxova qushlar va hayvonlar haqidagi afsonalar, makkor jonzodlar haqidagi ertaklar, g’aroyib mahluqlar haqidagi masallar va fantastik xarakterli bitiklar, hayvonlar saltanati haqida hikoya qiluvchi epik poemalar va satirik qissalar – animalistik adabiyotning to’liq bo’lmagan badiiy shakllari aa shulardan iborat deb ta’kidlaydi [2,3] Har bir halq afsonasi, asotir va rivoyat qolaversa folklorida hayvonlar obrazi keng talqin etiladi. Ta’kidlash lozimki folklorida hayvonlar va jonivorlar tasviri juda qadimdan boshlangan.

Ularning turi esa xalqlarning mashg’uloti, geografik joylashuvi, madaniyati, dunyoqarashi va urf-odatlari bilan chambarchars bog’liqdir. Hayvonlar qolaversa jonivorlar tasvirlangan asarlar mazmuni yuksak emotsiyonalligi bilan ajralib turadi. Insonlar hayotini hayvon obrazlari orqali tasvirlash, ularni ochib berish badiiy adabiyotdagi animalistik anasivi vazifalaridan biri hisoblanadi. Hayvonlar haqidagi adabiyotning asosiy tmaoyillari xalqlarning folklorida kuzatilgan bo’lsa, animalistik motivlar har bir milliy adabiyot vakillari o’ziga xos tarzda ishlab chiqqan.

Jahon adabiyotda hayvonlar obrazini uchratish mumkin bo’lgan asarlar juda ko’plab topiladi. Xususan, antik adabiyotda jonivornlarni tasvirlashning ma’lum bir qolipi, me’zoni shakllandi. Turli halqlarga tegishli bo’lgan masallarda hayvonlar va jonivorlar asosiy obrazlarda tasvirlandi. Masalchi Ezop, J.Lafonten, A.Kirill, Sh.Perro, J.Swift, J.L.Byuffon aka-uka Grimmlar ijodi mazkur janr elementlariga juda boy hisoblanadi. YOrqin ranglarda tasvirlangan jonivor va hayvonlar kitobxonlar, ayniqsa jajji kitobxonlar diqqatini o’ziga tortishi tabiiydir.

XVIII asrda ingliz adibi Jonatan Sift 1726 yilda o’zining mashhur “Gulliverning sayohatlari” asarini yaratibgina qolmay animalistik adabiyotga ippik ya’ni yunoncha “hippos – ot” so’zidan olingan janrni olib kirdi. Adib zamondoshlari

illatlarini fosh etar ekan, jirkanch exularga oljanot otlar guigngnmlarni qarama-qarshi tarzda ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Rus tadqiqotchisi Yu.S.Orexova fransuz animalistik janrini tadqiq qila turib uni ikki tipga ajratib ko'rsatadi:

1. XVIII asrgacha shakllangan antropologik uslub. Unda hayvonlar insonlarga moslashtirib ko'rsatiladi.
2. Zoologik uslub bo'lib, hayvonlar xususiyatlarini realizmga tayangan holda ochib berishdir.Tadqiqotchining fikriga ko'ra bu uslubga J.L.L.Byuffon asos solgan hisoblanadi[2]

Rus tadqiqotchisining tasnifiga ko'ra aniqlangan ikki uslub o'rtasidagi farq shundaki zoologik uslubda ilmiylik ustunlik qilishi kuzatiladi. O'zbek adibi Tog'ay Murod fikriga ko'ra bular badiiy asar bo'lib, badiiy asar bo'lmadi, ilmiy asar bo'lib, ilmiy asar bo'lmadi. Ular chinakam badiiy asar darajasiga ko'tarila olmay ilmiyga tobe bo'lib qoldi. Oqibat, o'z sohasiga oid qo'llanma asar bo'lib qoldi [3].Animalistik janr turli tarixiy-adabiy qonunlarga bo'ysungan turfa janr shakllarning omuxtasidan iborat bo'lib qoldi.

Tahlih va natijalar. Angliyada animalistika janri XIX asr boshida sodir bo'ldi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadi unga dastlab V.Rosko asos solgan bo'lsa, keyinchalik Ch.Dikkens, U.M.Tekkerey, J.Makdonald, L.Keroll, E.Lirr davom ettirishdi. Angliyada animalistika janrining gullab yashnashi XIX asr oxiri XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Mazkur davrni ingliz adabiyotshunosi H.Carpenter "oltin davr" deb atadi. Bugungi kunda animalistika janrining davomchilaridan hisoblangan ingliz adibi Maykl Morpurgo o'zining yorqin asarlari bilan adabiyotga kirib kelgan edi. Bolalar adabiyotining taraqqiyotiga hissa qo'shgan adib bugungi kunda ham ijod qilishdan to'xtagan yuq. Uning ijodi animalistika janri elementlariga juda boydir. Adib qalamiga mansub 1982 yilda yaratilgan "War horse -Jangovar ot" shubhasiz animalistika janrining eng yuksak namunalardan biriga aylandi.Jangovor ot birinchi jahon urushi voqealaridan hikoya qiladi. Asar bosh qahramoni Albertning otasi bozordan ot sotib oladi. Natijada uyga kelgan ot Jouini Albert parvarish qiladi. Yillar davomida Joui va Albert o'rtasida samimiyo do'stlik paydo bo'ladi. Sadoqatli do'stga aylangan Joui va Albertni urush ikkiga ajratadi. Biroq urushga safarbar etilgan Joui o'z do'stini urushda topadi. Chinakam do'stlik va insoniylikni tarannum etuvchi asar hech bir inson qalbini junbushga keltirmay o'tmaydi. Urushda ikki ko'zi jarohatlangan Albert otlar haqida gapira turib ularning tinglab tushunish qobiliyati borligini aytadi: "Some of them may not, David," said Albert. 'But one day, one day one of them will. He'll come in here and he'll recognise my voice. He's bound to come in here. And then you'll see a horse that understands every word that's said to him. – Ba'zilari bo'imasligi mumkin Devid," dedi Albert. "Biroq bir kuni ularning biri qiladi. U shu erga kelib meni ovozimdan taniydi. U aniq shu erga keladi. SHunda sen otning o'ziga aytilan har biri so'zni tushunishini ko'rasan" [1]. Tabiiyki Albert atrofidagi do'stligi bunga ishoqiramay qarashadi. Ammo Albert buni isbotlab berishga harakat qiladi: "I know everyone thinks I'll never find him. There's thousands of army horses with four white socks – I know that, but there's only one with a blaze in the shape of a cross on the forehead. And how many horses shine red like fire in the evening sun? I tell you there's not another one like him, not in the whole wide world. – Xamma men hech qachon uni topolmasligim haqida o'ylayapti. Men buni bilaman. Ammo bu erda bitta peshonasida qashqalisi bor. Va kechki quyoshda olovday tovlanib turadigan qancha ot bor. Men sizga dunyoda unga o'xshagan birontasi topilmasligini aytdim". [1] Albert do'stligiga Joui haqida gapirar ekan u bilan ulg'ayganligini, dunyodagi yagona do'sti u ekanligini va mana shu do'sti tufayli urushga kelganligini ta'kidlab o'tadi. Inson va ot o'rtasidagi do'stlik va sadoqatning ko'rinnas rishtasi shu qadar kuchli ediki Albert hatto o'lim ufurib turgan urush ichidan do'stini topish umidini yo'qotmaydi. Yagona do'stini topish umidi Albertning hayotining mazmuniga aylanib qolganday. Adib chinakam do'stlik rishtasini tasvirlar ekan, otning Albertni tinglay olishini va uning har biri so'zini tushunishini otning harakatlari bilan ko'rsatisha harakat qiladi.

Asarda tasvirlangan ot va inson obrazni bir-birini to'ldirib turishi ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Otning Albertga bo'lgan sadoqati, Albertning otga bo'lgan chinakam mehri bir-biriga chambarchars bog'langan. Ko'zi ko'rmay qolgan Albert o'z do'sti Jouining belgilarini shu qadar aniq tasvirlaydiki, atrofdagilar bu do'stlikning yagona guvohi bo'lib qolganday ko'rindi. Urushda minglab oq paypoqli va peshonasida qashqasi bor otlar ko'plab topilishi mumkin, ammo ular Albertning ovozini eshitganida bosh ko'tarib unga qarashmaydi. Faqat Jouigina Albertning ovozini eshitib bosh ko'taradi va jimgina uning oldiga sassiz yurib keladi. Shubhasiz Joui ham bolaligidan eshitib katta bo'lgan ovoz sohibi bo'lgan o'z do'stini urush yakunida topgandi.

Maykl Morpurgo birinchi jahon urushida sodir bo'lgan voqeani hikoya qilar ekan, urush dahshatlari ichida yo'q bo'lib ketmagan insoniylikni ham ko'rsatib berishga harakat qiladi. Qanchalik urush dahshatlari hukmron bo'lmash ular ichida hali yo'qolib ulgurmagan insoniylik va sadoqat tuyg'usi bu dahshatlarni engib o'tgandi.

Xulosa va takliflar. Adib "Jangovor ot" asarini yaratishda uch kishining katta hissasi borligini o'z intervyularida ta'kidlab o'tadi. Bu birinchi jahon urushida ishtirok etgan veteran Vilfred Ellis adibga urushda Devon Yemanridda otlar bilan qanday ishlaganini so'zlab beradi. Birinchi jahon urushi veterani Kapitan Badjet esa urush dahshatlarni, Albert Vins esa armiya vakillari qishloqqa kelib barcha otlar urushga safarbar etilganini e'lon qilishgani va otlarning hammasini sotib olib ketishganini hikoya qilib beradi. Birinchi jahon urushida bir millionga yaqin ingliz otlari urushda

halok bo‘lgani, o‘n milliondan ortiq otlar esa urushda yo‘qolib ketganligi qayd etilgan. Mazkur asar dastlab 2007 yilda Oliver Teatrida qo‘g‘irchoq otlar ishtirokida cahnalashtirilgan spektakl shaklida namoyish etildi. 2011 yilga kelib esa Stiven Shpilberg tomonidan “Jangovor ot” kinofilm suratga olindi. 1982 yilda yaratilgan asar shu yilning o‘zidayoq “Whitbread Book Award” mukofotiga loyiq deb topildi. Asarda bevosita jangovor ot Joui orqali uchta millat Albert ingliz, bobo va nevara Emili fransuz va nemis askarlari ishtirok etishadi. Jangovor ot Jouining boshidan kechirganlari muallif tomonidan mahorat bilan hikoya qilingan. Asar yosh kitobxonlar qalbidan joy oldi. Otlarni tarbiyalash, ularga g‘amxo‘rlik qilish va shu o‘rinda otning sadoqatini ko‘rsata olgan adib o‘zi bunyod qilgan uchta fermaga yiliga 60 minglab bolalar kelishini ta’kidlaydi. Fermaga kelgan bolalar ot bilan ishlashini va ularni parvarish qilishini o‘rganishni yozuvchi kuzatishdan erinmaydi.

Asarni mutoola qilar ekansiz nogoh ko‘z o‘ngingizda boshidan kechirganlari haqida gapirayotgan katta ko‘zli ot namoyon bo‘ladi. Bunday tasvir “Jangovor ot” kinofilm boshlanishdayoq ko‘zga tashlanadi. Asarni o‘qir ekanmiz urush ofatlariga qaramay o‘z do‘stini topish ilinjida yurgan Joui va Albertning hayotiga bevosita guvoh bo‘lamiz. Asarning boshlanishidan tortib to yakunigacha beg‘ubor va sadoqatli do‘stga aylangan Jouining hikoyasiga qulqutamiz va bu hikoya bugungi kunda ham yosh kitobxonlar qalbini zabit etishdan to‘xtagani yo‘q.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Michael M. War Horse. London: Scholastic Press 2010. –p 176.
2. Орехова Ю.С.Анималистическая литература Франции: традиции и их трансформация в творчестве С.Г.Коллет:Автореф.дисс.канд.фил.наук. –Калининград, 2008.
3. Тоғай М. Сетон Томпсон китобига сўзбоши. Э.Сетон Томпсон. Ёввойи йўрға. Жониворлар хақида хиоялар.- Т.:Ношир, 2010. -Б.7